



2021-yil, 19-noyabr

Hurmatli PDM oilalari,

Sizning salomatligingiz joyida degan umiddaman. Biz 29-noyabr dushanba kunini asinxron ta'lim olish kuniga aylantirishga qaror qildik. Bu degani 29-noyabr dushanba kuni o'quvchilar maktabga kelish o'rniga uydan turib tizimga kiradilar va vazifalarni mustaqil bajaradilar. PDM oraliq nazoratchisi sifatida men biz duch kelayotgan muammolar haqida rost gapirishim va qabul qilinayotgan qarorlarga oid aniq fikrga ega bo'lishimiz o'quvchilar, oilalar, xodimlar hamda hamjamiyatimizning manfaatlariga mos ekaniga ishonchim komil.

29-noyabr dushanba kunini maktabda dars o'tishdan masofadan asinxron ta'lim olishga o'tkazish qarori uchta sababga ko'ra qabul qilindi:

1. COVID-19 pandemiyasi ta'siri kundalik hayotimizga ta'sir etishda davom etmoqda. Ko'plab sohalarda bo'lgani kabi, mahalliy va federal maktab okruglari xodimlar yetishmovchiligidan qiynalmoqda. PDM da ushbu xodimlarga oid qiyinchiliklar COVID tufayli ishga chiqmaslik, ishga kiruvchilarning kamligi va o'qituvchilarni almashtiruvchi xodimlarning yo'qligi sababli yanada ortmoqda.
2. Bizga xabar berilishicha, avtobus haydovchilarining soni cheklangan va shu sababli biz o'quvchilarni maktabga olib kelishda qiynalamiz.
3. O'quvchilar va xodimlar masofadan o'qigan kuni bizning tozalik jamoamizga barcha maktablar va binolarni toza tutish uchun qo'shimcha bir kun taqdim etadi, bunga mintaqadagi COVID-19 holatlarining ortishi paytida elektrostat sepgichlar ham kiradi.

Asinxron ta'lim olish kuniga o'tkazish o'sha kunni talab etilgan 182 ta'lim berish kuniga kiritish imkonini beradi, bu esa o'quv yilini uzaytirish yoki bahorgi ta'tildan kunlarni olib tashlashdan xolos etadi. Vazifalarni bajarishdan tashqari, o'quvchilar ijtimoiy-emotsional ta'lim tadbirlariga ham qatnashish imkoniga ega bo'ladilar. Ishtirok etgan deb belgilash uchun o'quvchilar kun davomida Sotsiologiya fani tizimiga kirishlari lozim. Doimgidek, agar farzandingiz Microsoft Teams yoki Clever tizimiga kirishda qiynalsa, farzandingizning o'qituvchisini ogohlantiring. **Bizning oziq-ovqat bilan ta'minlash jamoamiz har bir maktabda soat 7:00 dan 13:00 gacha taomlarni olib ketish imkoniyatini tadim etadi.**

Sifatli ta'limning barcha o'quvchilarga taqdim etish madaniyatini yaratish ustida ishlar ekanman, sizning yordamingiz va sabrli bo'lganingiz uchun tashakkur bildiraman.

Ushbu Shukronalik kunida men amerikalik shoir, memuarlar muallifi va fuqarolar huquqlari faoli Maya Angeluning quyidagi so'zlarini yodga oldim: "Barcha narsaga hozir bo'l va barcha narsa uchun shukur qil".

Sizning oilangizni huzurli va zavqli Shukronalik kuni bayrami bilan tabriklayman.

Uyen Uolters, Ta'lim fanlari doktori
Maktablarning oraliq nazoratchisi

Pittsburg davlat maktablari (PDM) o'z dasturlarida, tadbirlarida yoki ishga olishda insonning irqi, tanasi rangi, kelib chiqishi, jinsi, nogironligi yoki yoshiga qarab ajratmaydi va boyskautilar va boshqa yoshlar guruhlariga bir xil darajada imkoniyat taqdim etadi. Har qanday savollarni O'quvchilar xizmati superintendanti yordamchisiga, Title IX muvofiqlashtiruvchi xodimi yoki Section 504/ADA Title II muvofiqlashtiruvchisiga 341 S. Belfild Avenyu, Pittsburg, PA 15213, 412-529-3950, TitleIXCoordinator@pghschools.org manziliga yoki 412. 529. HELP (4357) ga jo'natish mumkin.

Uyen Uolters,
Ta'lim fanlari doktori
Maktablarning oraliq nazoratchisi

341 S. Belfild Avenyu
Pittsburg, PA 15213

superintendentsoffice@pghschools.org
Telefon: 412-529-3600

Ota-onalar uchun
qaynoq liniya:
412-529-HELP (4357)


Expect
great
things.

 Pittsburgh
Public Schools

Uyen Uolters,
Ta'lim fanlari doktori
Maktablarning oraliq nazoratchisi

341 S. Belfild Avenyu
Pitsburg, PA 15213

superintendentsoffice@pghschools.org
Telefon: 412-529-3600

Ota-onalar uchun
qaynoq liniya:
412-529-HELP (4357)

Pitsburg davlat maktablari (PDM) o'z dasturlarida, tadbirlarida yoki ishga olishda insonning irqi, tanasi rangi, kelib chiqishi, jinsi, nogironligi yoki yoshiga qarab ajratmaydi va boyskautlar va boshqa yoshlar guruhlariga bir xil darajada imkoniyat taqdim etadi. Har qanday savollarni O'quvchilar xizmati superintendanti yordamchisiga, Title IX muvofiqlashtiruvchi xodimi yoki Section 504/ADA Title II muvofiqlashtiruvchisiga 341 S. Belfild Avenyu, Pitsburg, PA 15213, 412-529-3950, TitleIXCoordinator@pghschools.org manziliga yoki 412. 529. HELP (4357) ga jo'natish mumkin.